

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

6/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Umarxanova Dilдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ .....	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОБЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ .....	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ .....	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА .....	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA АНАМИЯТИ ВА HUQUQIY MUAMMOLARI .....	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI .....	61-67
<i>Akbaralievа Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES .....	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS .....	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI .....	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI .....	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ .....	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
<i>Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li</i> RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
<i>Fayzulloev Shohijaxon Jobirovich</i> XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
<i>Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi</i> ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
<i>Raimov Elbek Bahodirovich</i> OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
<i>Juraeva Asal</i> MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
<i>Rakhmonov Otabek</i> THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
<i>Айбек Якубов</i> ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJROGA QARATISHNING HUQUQIY TARTIBI .....	179-184
<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
<i>Elmurotov Ortiq Oltiboy o'g'li</i> TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
<i>Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li</i> URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
<b>08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI</b>	
<i>Imamov Javokhir</i> LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna</i> “TAHDID” FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	

<i>Bawetdinov Mukhammedin</i> UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI .....	210-215
<i>Соҳибова Зарнигор</i> ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) .....	216-219
<i>Jonridova Sanobar Sherali qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI.....	220-224
<i>Sharipova Mokhidil</i> PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH LANGUAGE.....	225-231
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Umarov Abdurasul Abdurahimovich</i> PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH .....	232-237
<i>Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi</i> YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY QARASHLARI .....	238-245
<i>Qalandarova Maxliyo</i> MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH .....	246-251
<i>Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	252-258
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i> TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI.....	259-264
<i>Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA IFODALANISHI .....	265-269

**Received:** 10 August 2024  
**Accepted:** 15 August 2024  
**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **CIVIL-LEGAL RELATIONS BETWEEN AUTHORS AND ORGANIZATIONS MANAGING PROPERTY RIGHTS ON A COLLECTIVE BASIS**

**Yakubova Iroda Bahramovna,**

DSc (Doctor of Science), Associate Professor Department «Intellectual property law»  
of Tashkent State University of Law,

**Abstract.** In recent years, a number of reforms have been implemented worldwide to ensure the protection of intellectual property, in particular copyright, and to strengthen its protection. These reforms are related to issues such as ensuring the rights and legal interests of authors, putting an end to unauthorized use of copyrighted works, fair payment of copyrights, and strengthening accountability measures for copyright violations. In addition, the large number of cases of unauthorized use of author's works and non-fair payment of copyright to authors indicate the growing need to develop the institution of collective management of author's property rights. In our country, there are a number of issues that are waiting for their solution, and the regulation of copyright-legal relations, in particular, collective management of copyrights in its protection, and the research of the processes related to the copyright contract are an urgent task. In addition, the article focuses on some current problems related to the improvement of this institution, international standards of copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other countries. Proposals and recommendations of scientific and practical importance for the development of copyright were put forward.

**Key words:** copyright, to enforce copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work, objects of copyright and related rights, extended collective management

## **MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR**

**Yakubova Iroda Bahramovna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk huquqi" kafedrasida dotsenti, DSc.  
E-mail: [i.yakubova@tsul.uz](mailto:i.yakubova@tsul.uz)

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda dunyo miqosida intellektual mulk, xususan, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash va uning himoyasini kuchaytirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmogda. Bu islohotlar mualliflarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, mualliflik asarlaridan ruxsatisiz foydalanishga chek qo'yish, mualliflik haqini adolatli to'lanishi va mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari kuchaytirish kabi masalalar bilan bog'liq. Qolaversa, mualliflik asarlaridan ruxsatisiz foydalanish va mualliflarga mualliflik haqini adolatli to'lanmatyotganlik holatlarining ko'pligi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish institutini rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan ham dalolat beradi. Mamakatimizda o'z yechimini kutayogan bir qancha masalalar mavjud bo'lib, mualliflik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish, xususan, uning muhofazasida mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish va mualliflik shartnomasi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuningdek, maqolada ushbu institutni takomillashtirish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolarga, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlariga va milliy qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahliliga, shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e'tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

**Kalit so'zlar:** mualliflik huquqi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lash, mualliflik huquqini amalga oshirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish, asarni omma oldida ijro etish, kengaytirilgan jamoaviy boshqarish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N02>

So'nggi yillarda dunyo miqyosida intellektual mulk, xususan, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash va uning himoyasini kuchaytirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mualliflarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, mualliflik asarlaridan ruxsatisiz foydalanishga chek qo'yish, mualliflik haqini adolatli to'lanishi va mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish kabi masalalar bilan bog'liq. Qolaversa, mualliflik asarlaridan ruxsatisiz foydalanish va mualliflarga mualliflik haqini adolatli to'lanmatyotganlik holatlarining ko'pligi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish institutini rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan ham dalolat beradi. Mamlakatimizda o'z yechimini kutayotgan bir qancha masalalar mavjud bo'lib, mualliflik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish, xususan, uning muhofazasida mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish va mualliflik shartnomasi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonunda belgilanib qo'yilgan va ular quyidagilardir:

1) haq to'lash bilan bir vaqtda huquq egalariga ularning huquqlaridan foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlarni taqdim etishi;

2) ushbu Qonun 58-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisi qoidalariga muvofiq yig'ilgan haqdan faqat huquq egalariga taqsimlash va to'lash uchun foydalanishi. Bunda tashkilot yig'ilgan haqdan bunday haqni yig'ish, taqsimlash va to'lash bo'yicha o'zining haqiqiy xarajatlarini qoplash summalarini, shuningdek shu tashkilot tomonidan o'zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalarining roziligi bilan va ularning manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladigan maxsus fondlarga yo'naltiriladigan summalarini chegirib tashlashga haqlidir;

3) yig'ilgan haq summalarini, ushbu qismning uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan summalarini chegirib tashlagan holda, asarlardan va turdosh huquqlar obyektlaridan amalda foydalanilishiga mutanosib ravishda taqsimlashi va muntazam to'lab borishi;

4) yig'ilgan haqni bevosita huquq egalariga taqsimlashi hamda to'lashi va (yoki) uni huquq egalariga taqsimlash va to'lash uchun tegishli toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ifodalovchi boshqa tashkilotlarga shu tashkilotlar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida o'tkazishi;

5) talab qilib olinmagan haqni huquq egalarini qidirish choralarini ko'rgan holda, u tashkilot hisobiga tushgan sanadan e'tiboran uch yil mobaynida saqlab turishi shart. Ko'rsatilgan muddat tugagach, tashkilot talab qilib olinmagan haqni taqsimlanadigan summalariga qo'shib yuborishga yoki uni tashkilot o'zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, faqat shu huquq egalarining roziligi bilan va ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa maqsadlarga qaratishga haqlidir.

Tashkilotga ushbu Qonun 58-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisida nazarda tutilgan haqni yig'ishga nisbatan vakolatlar bermagan huquq egalari amalga oshirilgan taqsimlashga muvofiq ularga tegishli haqning to'lanishini, shuningdek o'z asarlarini yoki

turdosh huquqlar obyektlarini bu tashkilot tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etilgan shartnomalardan chiqarib tashlashni tashkilotdan talab qilishga haqlidir.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot zimmasida huquq egalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida va qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin [1].

Tashkilotning asosiy funksiyalarining mazmuni kelajakda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning asosiy faoliyatini huquqiy o'rganish jarayonida ochib beriladi. Endi mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotning "boshqa faoliyati" nimadan iborat ekanligiga to'xtalib o'tish kerak.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarishdan tashqari, butun dunyo bo'ylab ko'plab mualliflik jamiyatlari o'zlarining asosiy ishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bu, birinchi navbatda, milliy repertuarni targ'ib qilish bo'yicha agentlik faoliyati, milliy madaniyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash turli shakllarda bo'lishi mumkin (tanlovlar tashkil etish, grantlar tashkil etish va boshqalar). Ushbu turdagi ish ularning faoliyatining asosiy maqsadi — mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bilan zid kelmaydi, deb aytiladi. Bunday holda, xarajatlar undirilgan mukofot hisobiga emas, balki asarni targ'ib qilishdan manfaatdor bo'lgan mualliflik huquqi egalarining komissiyalari yoki boshqa resurslar (masalan, xususiy yoki davlat subsidiyalari) hisobidan to'lanadi [2, 97].

O'zbekiston Respublikasi huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emas (Qonunning 56-moddasi 2-bandi). Amaldagi qonunchilikning ushbu qoidasi hech qanday istisnolarga yo'l qo'ymaydi. Jamoaviy boshqaruv tashkilotining asosiy funksiyalari tijorat faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lsa ham, u bunday faoliyatni amalga oshirishga haqli emas.

O'zR FKning 97-moddasining 2-qismiga binoan, Mutlaq huquq obyekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin. Biroq, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 58-moddasiga binoan, Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o'zi qaysi huquq egalari nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalari nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

to'lanadigan haq miqdorini va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;

bunday tashkilot boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;

tashkilot to'lanadigan haqni yig'ish bilan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda shartnoma tuzmasdan shug'ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;

shartnomalarda nazarda tutilgan haqni va (yoki) ushbu qismning to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan haqni yig'ish, taqsimlash va to'lash;

bunday tashkilot o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;

shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar obyektlarini, shuningdek asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar obyektlariga bo'lgan huquqlarni

boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish.

Mualliflik huquqi egasining roziligisiz ham amalga oshirish mumkin bo'lgan, mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish imkoniyatini yaratadigan qoidalar Qonunda nazarda tutilgan istisno bo'lib, u ma'lum darajada mualliflik huquqi egalarining manfaatlarini buzishi ham mumkin, chunki muallifning mualliflik huquqlari mutlaqlik xususiyatiga egadir. Mualliflik huquqi egasi ularni amalga oshirish va himoya qilish imkoniyatini uchinchi shaxsga berishni, faqat mualliflik huquqi egasining dastlabki ifodalangan irodasi, maqsadi mavjud bo'lgandagina vujudga keladi. Qonunning 58-moddasi mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish sohasida bunday iroda ifodasini talab qilmaydi, bu esa huquqlarni jamoaviy boshqarish tizimining ko'plab tanqidchilariga mualliflik huquqini jamoaviy boshqarishning mohiyati huquq egasiga tegishli huquqlarning mutlaqlik xususiyatini qadrsizlantiradi degan fikrga olib kelishi mumkin. Biroq, mualliflik huquqi egalari huquqlarining buzilishi bu holatda asoslidir, chunki u pirovardida mualliflik huquqi egalarining individual asosda mutlaq mualliflik huquqlarini amalga oshirish qiyin bo'lgan asardan foydalanish sohalarida huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga hamda ularning asarlarining jahon repertuariga kirishini xohlaydigan butun jamiyat uchun xizmat qiladi. Bu borada qator mualliflarning matbuotda bildirilgan tanqidiy mulohazalari bilan qo'shib bo'lmaydi, chunki ular na huquqiy nuqtai nazardan, na jahon amaliyoti nuqtai nazaridan asossizdir [3, 4650].

Huquq – shakllangan ijtimoiy munosabatlarni o'z normalarida mustahkamlab, ularni samarali tartibga solish vositasi bo'lishi lozim. Dunyodagi ko'plab jamiyatlar, huquqiy tizimlar va davlatlarning siyosiy-iqtisodiy tuzilishidagi farqlarga qaramay, "kengaytirilgan" jamoaviy boshqaruv sxemasiga asoslanadi. Qonun mualliflik jamiyatlariga asarlardan foydalanishga ruxsat berish huquqini taqdim etadi. Bu orqali mualliflik huquqi egalarining hamda insoniyat madaniyatining muhim qismi bo'lgan asarlardan foydalanishni istagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinadi.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha BIMT tavsiyalarida (259-band) aytilishicha, "agar jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga umumiy (keng doirali) litsenziyalar berish huquqi berilmasa, jamoaviy boshqaruv tizimi buziladi va ular butun repertuarlariga tegishli bo'lgan asarlarni alohida-alohida tasdiqlashlari va har bir huquq egalaridan u uchun roziligini olishlari shart bo'lib qoladi, eng qiyini ushbu tashkilotlar muayyan mualliflik huquqi egalaridan muayyan asarlarga bo'lgan huquqlarni boshqarish vakolatini olganligi haqida qonuniy asoslarni isbotlab berishga majbur bo'lib qolishadi" [4, 83].

Huquq egasi va tashkilot o'rtasidagi aloqalar shakllanishi borasida turli qarashlar mavjud. Bu fikrlar hozirda jahon mualliflik jamiyatlari faoliyat yuritayotgan amaliy huquqiy yo'nalishlardir. Ushbu masalani chuqur o'rganib, jahon tajribasini tahlil qilish va mamlakatimizdagi amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda, O'zbekistonda huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha mualliflik tashkilotlari qanday rivojlanayotganini aniqlashga harakat qilamiz.

Bunday munosabatlarning huquqiy mohiyatini sub'ektlari doirasi, mazmuni va yuzaga kelish sabablari nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali to'liqroq yoritish mumkin. Qonunning 57-moddasi 1-qismiga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish vakolatlari huquq egalari tomonidan ixtiyoriy ravishda yozma shartnomalar asosida, shuningdek boshqa

tashkilotlar (jumladan, xorijiy tashkilotlar) bilan tuzilgan tegishli shartnomalar bo'yicha beriladi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, muallif yoki boshqa huquq egasi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotga shartnoma bo'yicha o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish uchun vakolatlar berishga haqlidir, tashkilot esa, agar bunda huquqlarni boshqarish shu tashkilotning ustavida ko'rsatilgan faoliyatiga taalluqli bo'lsa, bu huquqlarni jamoaviy asosda amalga oshirishni o'z zimmasiga olishi shart. Muallif yoki boshqa huquq egasi o'z mulkiy huquqlari yoki huquqini amalga oshirish vakolatlarini tegishli toifadagi huquq egalarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi faqat bitta tashkilotga berishga haqlidir.

Shu bilan birga, Qonunning 57-moddasi 4-qismiga binoan, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot huquq egalardan olingan vakolatlar asosida foydalanuvchilar bilan asarlardan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish uchun shartnomalar tuzadi. Shartnomalarning shartlari foydalaniladigan asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining turi va hajmiga qarab aniqlanadigan bitta toifadagi barcha foydalanuvchilar uchun bir xil bo'lishi kerak. Shu asnoda, qonunchilik tashkilotga o'z nomidan harakat qilish huquqini bermagan shaxslar nomidan ham, ularning manfaatlarini ko'zlab ish yuritish huquqini berdi va shu bilan birga mualliflik huquqini "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish tizimini joriy qildi.

Bunday holda, O'zR FKning 47-bobida nazarda tutilgan huquqiy institut bilan ma'lum bir o'xshashlik mavjud ("Begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish"). O'zR FKning 826-moddasiga binoan, "Manfaatdor shaxsga yoki uning mol-mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish, uning majburiyatlarini bajarish yoki uning qonunga zid bo'lmagan boshqa manfaatlarini ko'zlab, uning topshirig'isiz, boshqa ko'rsatmasisiz yoki oldindan va'da berilgan rozilgisiz qilingan harakatlar (begona shaxsning manfaatini ko'zlab qilingan harakatlar) ochiq ko'rinib turgan manfaat yoki foydadan hamda manfaatdor shaxsning haqiqiy yoki ehtimol tutilgan niyatlaridan kelib chiqib hamda ishning holatlariga ko'ra zarur g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan qilinmog'i kerak" [5]. Shu bilan birga, boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab, uning topshirig'isiz harakat qiluvchi shaxs birinchi imkoniyat tug'ilishi bilanoq, bu haqda manfaatdor shaxsga xabar berishi shart. Agar manfaatdor shaxs bu harakatlarni ma'qullasa, shundan keyin topshiriq shartnomasi to'g'risidagi qoidalar taraflarning munosabatlariga nisbatan qo'llanadi. (O'zR FKning 827-moddasi). Bundan tashqari, manfaatdor shaxs uni "tasdiqlashi" kerak, ya'ni, o'z xohish-irodasini, uning ko'rsatmasisiz amalga oshirilgan harakatlarni bildirishi lozim. (O'zR FKning 828, 829-moddalari). Faqat bu holatda manfaatdor shaxs o'z manfaatlarini ko'zlab qilgan harakatlari uchun huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Mualliflik huquqlarini "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish tizimida, tashkilotlar mualliflar va foydalanuvchilar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Ular ko'plab litsenziya shartnomalari va bitimlarni boshqaradi, shuningdek mualliflik huquqi egalarning manfaatlarini himoya qiladi. Biroq, har bir muallif bilan alohida kelishuvga erishish amalda mumkin emas. Bu jarayonni "begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish" deb ta'riflash noto'g'ri bo'ladi. Chunki tashkilotlar qonuniy vakolat asosida ish yuritadi va mualliflarning huquqlarini samarali himoya qilish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli faoliyatni amalga oshiradi. Bu tizim mualliflik huquqlarini boshqarishning zamonaviy va samarali usuli hisoblanadi.

O'zR FKning 129-moddasiga ko'ra, ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Fuqarolik huquqida vakillik ixtiyoriy va qonuniy asosda bo'lishi mumkin. Bu tasnif vakillikning kelib chiqish sabablariga asoslanadi. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish sohasida qonun har ikkala turdagi vakillikni tan oladi.

"Kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish tizimining o'ziga xos jihati shundaki, tashkilotning huquq egalari nomidan faoliyat yuritish vakolatlari ikki manbaga tayanadi: shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari. Bu tizim tashkilotlarga keng qamrovli vakolatlar beradi, shu bilan birga huquq egalari manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlaydi. Bunday yondashuv mualliflik huquqlarini boshqarishda muvozanatni saqlash va barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga olishga yordam beradi.

"Vakillik" tushunchasiga eng muvaffaqiyatli ta'rifni E.L. Nevzgodina beradi: "Vakillik ... nomulkiy tashkiliy huquqiy munosabatlar bo'lib, unga ko'ra bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakillik qilingan) nomidan ushbu harakatlarning vakillik xususiyatini bilgan uchinchi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan huquqiy harakatlar, uchinchi shaxslar bilan munosabatlarida bevosita vakili bo'lgan shaxs uchun huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishiga, o'zgarishiga yoki bekor qilinishiga olib keladi"[6, 31].

"Vakolat" tushunchasi nuqtai nazaridan uning huquqiy mohiyatini aniqlash zarur. Fuqarolik huquqi fanida bu masala bo'yicha aniq fikrlar mavjud emas. Mavjud nuqtai nazarlar orasida uchta asosiy tushunchani ajratib ko'rsatish kerak. "Huquqiy layoqatning paydo bo'lishi" tushunchasi, uning tarafdori V.A. Ryasentsev hokimiyatni [7, 7] "fuqarolik huquqiy layoqatining namoyon bo'lishi va boshqa shaxs nomidan harakat qilish qobiliyatidan iborat" deb ta'riflaydi. Keyinchalik, V.A. Ryasentsev vakolat, garchi o'ziga xos bo'lsa ham, lekin subyektiv huquqdir, degan xulosaga keldi.

O.A.Krasavchikova vakillik tizimida uchta tarkibiy qismni ko'rsatadi:

1) vakil bilan vakillik beruvchi o'rtasidagi ichki tashkiliy zaruriy huquqiy munosabatlar, buning natijasida vakilga vakolat beriladi; 2) bitim tuzish yoki boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish jarayonida vakil va uchinchi shaxs o'rtasidagi tashqi huquqiy munosabatlar; 3) vakillik beruvchi va uchinchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlar — ichki va tashqi munosabatlarni amalga oshirish natijasi[8, 56-57]. E.JI. Nevzgodina, bu boradagi vakolatning nisbiy ichki huquqiy munosabatlarining elementi sifatida qaraydi. Shu bilan birga, vakolat mutlaq huquqiy munosabatlarning elementi hisoblanib, unga ko'ra har kim vakilning vakolatlarini amalga oshirishiga aralashmaslikka majburdir[9, 18].

Huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish sohasidagi vakillik institutini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu holda yuqorida aytib o'tilgan vakillikning ayrim belgilari mavjud emas. Vakillik bilan bog'liq har qanday fuqarolik huquqiy munosabatlari qonun yoki shartnoma asosida manfaatlarini ifoda etadigan muayyan shaxslar doirasining mavjudligini nazarda tutadi. Bunday holda, vakillik beruvchi tomonda shaxslarning noaniq bo'lgan ko'pchilikni tashkil qilinganligi bilan bog'liqligidir. Shunday qilib, "kengaytirilgan" jamoaviy boshqaruv holatida, huquq egasi va tashkilot o'rtasidagi munosabatlar vakillik tomonida bo'lgan cheksiz ko'p shaxslar bilan vakillikning fuqarolik-huquqiy munosabatlari ekanligini

aytishimiz mumkin. Vakil va uchinchi shaxs o'rtasidagi tashqi huquqiy vakillik munosabatlari doirasida foydalanuvchi bilan litsenziya shartnomasini imzolashda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish tashkiloti nomidan emas, balki umuman mualliflik huquqi egalarining noma'lum doirasi nomidan ish yuritadi. Huquqiy munosabatlar doirasida bir tomondan, ma'lum bir shaxs, ikkinchi tomondan, cheksiz ko'p shaxslar o'rtasida huquqiy munosabatlar quriladigan holatlar mavjud. Bunga mutlaq munosabatni misol qilib keltirish mumkin [10, 65-69].

Biroq, qonunchilik huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish konsepsiyasini kiritgan va shu bilan tashkilot va huquq egalarining cheksiz ko'pligi o'rtasidagi vakillik munosabatlarini o'rnatgan holda, huquq egalarining qonuniy vakillari sifatida tashkilotlar qanday o'zaro munosabatda bo'lishini aniqlamagan. Shunday qilib, noaniq ko'pchilik vakil tomonidan ham yuzaga keladi, chunki mualliflik huquqi egalarining ma'lum bir toifasiga nisbatan asarlardan foydalanishning bir sohasida tashkilotlarni yaratish va ularning o'zaro ta'sir qilishning o'ziga xos mexanizmi mavjud emas. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, taklif qilingan huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish sohasidagi vakillik huquqiy munosabatlarining huquqiy tuzilishi, shuningdek, tashkilot va huquq egasi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning boshqa har qanday huquqiy tavsifi hozirda mantiqiy va huquqiy jihatdan benuqson bo'lishi mumkin emas, chunki amaldagi milliy qonunchilikda ma'lum bir toifaga nisbatan asarlardan foydalanishning bir sohasida mualliflik huquqini boshqaruvchi tashkilotlar soni va uni ishlash mexanizmi masalasida bo'shliq mavjuddir [11, 119-123].

Vakillikning fuqarolik huquqiy munosabatini huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarish sohasidagi vakillikdan ajratib turadigan ikkinchi xususiyat shundaki, qonunga binoan tashkilot bo'lgan vakil tomonidan o'z vakolatlarini jamoaviy boshqarish bo'yicha amalga oshirish uchinchi shaxslarga nisbatan uning uchun muayyan huquqiy oqibatlariga olib keladi. Shunday qilib, Qonunning 57-moddasining 4-bandiga binoan, Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot huquq egalaridan olingan vakolatlar asosida foydalanuvchilar bilan asarlardan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish uchun shartnomalar tuzadi [12].

Ushbu xususiyatlarning mavjudligi mulkiy mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish sohasida jamoat (ommaviy) manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustunligi bilan bog'liq bo'lib, bu, bir tomondan, ularning egalari asarlardan foydalanishning ayrim sohalarida ommaviy miqyosda mualliflik huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish zarurati bilan bog'liq, boshqa tarafdin, televidenie, radio, Internet va hokazolarda ko'plab asarlardan foydalanuvchi shaxslar tomonidan mualliflik huquqiga rioya qilishdan manfaatdorlikning mavjudligidir. Bunda ommaviy huquq motivatsiyasining ustunligi mulk huquqlarini jamoaviy boshqarish sohasida mavjud bo'lgan huquqiy normalarni yo'naltirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Huquqning xususiy va ommaviyga bo'linishi, shuningdek, fuqarolik huquqining bunday bo'linish doirasidagi o'rni masalasi ushbu tadqiqot mavzusi emas albatta, shu bilan birga, mulk huquqini "kengaytirilgan" jamoaviy boshqarishda vakillikning huquqiy munosabatini ko'rib chiqsak, fuqarolik huquqi uchun odatiy bo'lmagan vakillik huquqiy munosabatlarining jus dispositivum tamoyiliga, yuzaga kelish asoslari, amalga oshirish xususiyatlari va predmet tarkibi nuqtai nazaridan asoslangan tuzilishiga e'tibor qaratish zarur [13].

Dispositivum tamoyili huquq va majburiyatlar subyektlarining teng huquqiy holatini nazarda tutadi, huquqiy munosabatlar, qoida tariqasida, ijtimoiy ijobiy harakatlardan kelib chiqadi, huquqni amalga oshirish va himoya qilish esa manfaatdor shaxsning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda vakillikning huquqiy munosabati manfaatdor shaxsning mualliflik huquqini amalga oshirish va himoya qilish bo'yicha irodasining obyektiv ifodasi mavjudligini talab qilmaydi. Qonun tashkilotga cheklanmagan doiradagi mualliflik huquqi egalariga nisbatan ma'lum vakolatlar (subektiv huquqlar) ro'yxatini beradi. Shu munosabat bilan biz dispozitivlik prinsipidan chetga chiqish haqida gapirishimiz mumkin. M. M. Agarkovning ta'kidlashicha, shaxsiy subektiv huquqlar shaxsiy erkinlikning mavjudligi yoki yo'qligiga qarab, ommaviy yoki xususiy bo'lishi mumkin bo'lgan huquqning o'zini amalga oshirish yo'nalishi va chegaralarining xususiyatlarini belgilab beradi. Agar biz bir butun sifatida huquqiy munosabatlar haqida gapiradigan bo'lsak, u holda ular subektiv huquqlarning turli kombinatsiyasi asosida shakllangan bo'lib, nafaqat xususiy va ommaviy, balki aralash – xususiy-ommaviy ham bo'lishi mumkin[14, 37-41].

Jamoaviy boshqaruvlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan foydalanishga ruxsat olish va mukofot pullarini yig'ish va tarqatishning samarali tizimini o'rnatish orqali bunday materialdan muayyan foydalanish uchun tegishli to'lovlar yoki to'lovlarni to'lash mexanizmini taqdim etadi. Tanlangan jamoaviy boshqaruvlar ijtimoiy, madaniy va reklama xizmatlarini taqdim etadilar.

Mualliflik huquqi mulkini jamoaviy boshqarishda ishtirok etuvchi tashkilotlarning huquqiy shakllari va ularning maqomi turli davlatlarda farq qiladi. Bu xilma-xillik milliy qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari, tashkilotning rivojlanish darajasi, mavjud bo'lish muddati bilan bog'liq. Bu masalalar Belgiya, Ispaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya qonunlarida va dunyoning bir qator boshqa davlatlarining qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Ba'zi mamlakatlarda maxsus amaliyot kodekslari ishlab chiqilgan (masalan, Argentinada — Mualliflar Jamiyatiga tegishli 1968-yildagi 17.648-sonli Qonun va Jamiyatga tegishli 1973 yildagi 20.115-sonli qonun).

Tashkilotlarni yaratish va faoliyatida mavjud bo'lgan ba'zi tendensiyalar haqida gapirish mumkin. Mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish nodavlat notijorat tashkilotlarining foyda olish maqsadini ko'zlamagan huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha faoliyati tufayli yuzaga kelgan va rivojlanmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlari boshqarishi kerak bo'lgan huquqlarning tabiatiga eng mos keladi, deb ishoniladi, chunki ular odatda individual huquq egalarining shaxsiy huquqlari bilan shug'ullanadilar, shuningdek, jamoaviy boshqaruv predmetini ham hisobga oladilar.

1936-yildagi Berlin Kongressida Xalqaro Mualliflar va Bastakorlar Jamiyatlari Konfederatsiyasi mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning namunaviy nizomlarining asosini tashkil etuvchi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi:

1. Konfederatsiyaga kiruvchi barcha tashkilotlarga bevosita yoki asosan foyda olish maqsadida tijorat va spekulyativ faoliyat bilan shug'ullanishi qat'iy man etiladi.

2. Ushbu konsepsiyaning keng ma'nosida barcha mualliflik jamiyatlari har bir aniq holatga qarab yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan yoki berilmagan xo'jalik shirkati yoki boshqa bunday birlashmaning huquqiy shakli va tuzilishini olishi va saqlashi kerak, lekin ular

hech qanday holatda savdo kompaniyalariga (aksiyadorlik jamiyatlari, trestlar va boshqalar) xos bo'lgan shaklni olishga va faoliyatni amalga oshirishga harakat qilmaslik kerak[15].

Bir qator mamlakatlarda huquqlarni boshqaruvchi tashkilotning tijorat faoliyatini amalga oshira olmasligi to'g'risidagi qoida amaldagi qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri qayd etilgan (masalan, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 56-moddasi 2-bandi).

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida nodavlat tashkilotlarda mualliflar birlashmalarining eng maqbul huquqiy shakli biznes sheriklik hisoblanadi. Ushbu shakl Fransiyada SACD va SACEM tuzilganda qabul qilingan va 1985 yil 3 iyuldagi Qonuni bilan mustahkamlangan. Uning 38-moddasining 1-bandida "mualliflar, ijrochilar, fonogrammalar va videogrammalar ishlab chiqaruvchilarning huquqlaridan foydalanganlik uchun haq undirish va taqsimlash bilan shug'ullanuvchi jamiyatlar xo'jalik shirkatlari shaklida tuzilsin", deyilgan.

Lotin Amerikasining turli mamlakatlarida xo'jalik sheriklik modeli qabul qilingan, unda jamoaviy boshqaruv tashkilotlari nodavlat tashkiloti deb hisoblanadi (masalan, Argentinada — ARGENTORES va SADAIC, Braziliyada — UBC).

Biroq, xo'jalik sheriklik shakli barcha tashkilotlar tomonidan mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish uchun qo'llanilmaydi, chunki bu tashkiliy-huquqiy shakl barcha mamlakatlarning qonunchiligida mavjud emas. 30 yildan ortiq vaqt davomida SUISA (Shveysariya) mualliflik kompaniyasining bosh direktori bo'lib ishlagan Ulrich Uchtenhagen bunday hollarda jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga kooperativning huquqiy shaklini berishni taklif qiladi, chunki uning fikricha, aynan shu turdagi tashkilot mualliflarning, shuningdek nashriyotlarning jamoaviy boshqaruv tashkilotida ishtirok etishini eng yaxshi ta'minlaydi[16].

Belgiya, Norvegiya va Shveysariyadagi jamoaviy boshqaruv tashkilotlari kooperativ shaklni oldi; Argentinada ARGENTORES va SADAIC ikkala xo'jalik shirkati va o'zaro yordam jamiyatlari hisoblanadi.

Boshqa turdagi jamoaviy boshqaruv tashkilotlari anglo-sakson huquqiy an'anaga ega mamlakatlarda mavjud. Mualliflik huquqi jamiyati ACUM (Isroil) aksiyadorlik jamiyati va Buyuk Britaniya Mualliflik huquqi boshqarmasi (PRS) mas'uliyati cheklangan jamiyatidir.

1939-yilda tashkil etilgan BMI (Broadcast Musik Inc.) [17, 97] o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ijro huquqlari bo'yicha yagona organ bo'lib, kapitali uning musiqiy repertuarining asosiy foydalanuvchilari bo'lgan radioeshittirish tashkilotlariga to'liq tegishlidir. 1969 yilda BMIning o'sha paytdagi vitse-prezidenti kompaniyaning kapitali teleradiokompaniyalarga bir aksiya uchun 5 dollarga obuna bo'lganligini yozgan va bu kompaniya o'zining raqobatbardoshligini zaiflashtirish uchun nazoratni egallashni xohlaydigan shaxslar qo'lga tushmaslik uchun hech qachon dividend to'lamasligini va aksiyalarni sotish ma'lum cheklovlar bilan birga bo'lishini nazarda tutgan. Darhaqiqat, BMI hech qachon dividend to'lamagan. Ushbu kompaniyaning aksiyalari hali ham 5 dollarga baholanmoqda va 500 ga yaqin aksiyadorlar hech qanday maxsus imtiyozlardan foydalanmagan; ularning aksariyati teleradioeshittirish tashkilotlari xodimlari (faol yoki nafaqadagi) yoki ularning barcha ulushlarini depozitga qo'ygan merosxo'rlaridir[18, 36-45].

Braziliya davlatining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining[19] 97-moddasi 1-qismida berilishicha, "Ushbu moddaning amal qilish doirasiga kiruvchi uyushmalar ushbu Qonun qoidalarga muvofiq jamoat manfaatlarini nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshiradilar va o'zlarining ijtimoiy funksiyalarini bajaradilar".

Xitoy Xalq Respublikasining qonunchiligida esa, huquq egasining o'zi tomonidan samarali amalga oshirilishi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan huquqlar, xususan, mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan ommaviy ijro, namoyish etish, efirga uzatish, ijaraga berish, axborot tarmog'i orqali ommaviy tarqatish va ko'paytirish huquqlari mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruviga o'tkazilishi mumkin"[20].

Meksika davlatining 2016-yil "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 116-moddasiga binoan, "Jamoaviy boshqaruv jamiyati – bu qonunga muvofiq milliy va xorijiy mualliflar va turdosh huquqlar egalarini himoya qilish, shuningdek mualliflik huquqidan yoki turdosh huquqlardan foydalanganlik uchun ularning foydasiga olingan haqlarni undirish va taqsimlash maqsadida tashkil etilgan notijorat yuridik shaxs"[21].

Koreya Respublikasining 2016-yildan boshlab "Mualliflik huquqi to'g'risida" Federal qonunining 192-moddasiga binoan, "Mualliflik huquqini boshqarish xizmati" atamasi ishlatiladi, ya'ni mulkiy mualliflik huquqi egasi nomidan huquqlarni, masalan, nashr qilish, chop etish huquqlari va turdosh huquqlarga bo'lgan mutlaq huquqni yoki ishlab chiquvchilar bilan bir xil huquqlarga ega bo'lgan va boshqarishga vakolatli bo'lgan bosh agent yoki tashkilotni anglatadi".

Yevropa mamlakatlarida jamoa boshqaruv tashkilotlari asosan nodavlat tashkiloti bo'lib, davlat hokimiyati organlari nazorati ostida faoliyat ko'rsatishiga qaramay, ularning bir qismi davlat ishtirokida, boshqalari esa yarim davlat xarakteriga ega.

Italiyaning mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunining 57-moddasi dramatik asarlar va musiqiy asarlarni ijro etishda mualliflik huquqini boshqarish Italiya Mualliflar va nashriyotchilar jamiyati (SIAE) zimmasiga yuklangan. Bu tashkilot nodavlat tashkilot hisoblanadi. Uni tuzishda davlat mablag'laridan foydalanilmagan. Jamiyat davlatdan yordam olmaydi. Tashkilot rahbariyatining a'zolari uning a'zolari orasidan uch yil muddatga saylanadi. Uning byudjeti va mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisoboti Vazirlar Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi[22, 360].

Amaldagi O'zbekiston qonunchiligi mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilamaydi. Biroq, qonunchilikning mavjud qoidalarini tahlil qilish bizga ma'lum xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchi navbatda, huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkiloti alohida huquqiy layoqatga ega bo'lgan yuridik shaxs bo'lishi kerak, bu esa asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga imkon bermaydi (Qonunning 56-moddasi).

Har qanday nodavlat notijorat tashkilot faoliyatining maqsadi, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. ("Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" qonunining 2-moddasi 2-bandi).

O'zbekistondagi mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish tizimini rivojlantirish jarayonida, Yevropa tajribasiga, ayniqsa Fransiya, Germaniya va Shveytsariya kabi rivojlangan davlatlar amaliyotiga e'tibor qaratilmoqda. Bu mamlakatlarda, O'zbekistonda bo'lgani kabi, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar odatda a'zolikka asoslangan nodavlat tashkilotlar hisoblanadi va ular tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emas.

Biroq, O'zbekiston qonunchiligi ushbu sohada huquqiy normalarni ishlab chiqishda mahalliy siyosiy, iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarni inobatga olishi lozim. Bu yondashuv O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda, xalqaro tajribadan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada, mamlakatimizda mualliflik huquqlarini himoya qilishning samarali va milliy xususiyatlarga mos keluvchi tizimi shakllantirilmoqda.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham hozirgi vaqtda davlat huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini shakllantirish va faoliyat yuritish jarayonida o'z ishtirokini minimallashtirishga harakat qilmoqda. O'zbekistonda ularning shakllanishi jarayoni hali boshlang'ich bosqichda bo'lganligi sababli, ushbu tashkilotlar juda ko'p muammolarga duch kelishmoqda.

Ko'p sonli nizolar huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni ustidan davlat tomonidan nazorat qilishning maxsus huquqiy mexanizmining yo'qligi, shuningdek, huquq egalaring asarlardan foydalanishning bir sohasida va bir toifasiga nisbatan faoliyat yuritishida jamoaviy tashkilotlarning soni to'g'risidagi masala aniq qonun hujjatlarida mustahkamlanmaganligi sababli yuzaga keladi. Afsuski, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonunning 56-moddasi orqali qonun chiqaruvchi aslida dunyoda mavjud bo'lgan huquqlarni jamoaviy boshqarishning mumkin bo'lgan variantlarini sanab o'tish bilan cheklanib qolgan, hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'zlari uchun huquqlarni jamoaviy boshqarish variantlaridan birini tanlash imkoniyatini berdi. Shubhasiz, bunday tanlovni mualliflar jamiyatlarining shakllanish tendensiyasini hisobga olgan holda hayot tajribasining o'zi qilish kerak edi. Qonun qabul qilinganiga 15 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu vaqt ichida huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha yangi tashkilotlar paydo bo'ldi. Biroq, na mualliflar, na boshqa mualliflik huquqi egalari o'zlarining mualliflik huquqlarini birgalikda boshqarishda ulardan hech qanday haqiqiy qiymatni olishmagan. Bugungi kunda ommaviy ijro, asarlarni televideniye (radio) eshittirish va kabel orqali (shu jumladan Internetda) uzatish, reprografik ko'paytirish, moddiy asarlarni takrorlash sohasida ommaviy axborot vositalari va butun mamlakat bo'ylab to'plangan royalti yig'ish va tarqatish mexanizmiga ega bo'lgan mualliflik huquqini amalda boshqaradigan haqiqiy kuchli tashkilot mavjud emas. Mualliflik huquqi xizmatlarini jamoaviy boshqarish bozorida mavjud tashkilotlarning ish sifati adolatli tanqidga sabab bo'lmoqda va hali ham dunyoda mavjud mualliflik huquqi jamiyatlari (masalan, SACEM (Fransiya)) faoliyat yuritadigan darajadan juda ham uzoqdir. Bugungi kunga jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish eng muvaffaqiyatlisi huquq egalaring bir toifasiga nisbatan asarlardan foydalanishning ma'lum bir sohasida bir tashkilot faoliyatining monopoliyasini o'rnatish bo'ladi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги қонун/  
<https://www.lex.uz/acts/1022944>
2. Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқларни жамоавий бошқариш. WIPO. Женева, 1990 йил, 97-бет.
3. Звегинцева Е., Крюков М., Шульгин А. Общество и правообладатели: проблемы в правоотношениях //Интеллектуальная собственность. Авторское право. 2000. N1.0. 4650.

4. Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқларни жамоавий бошқариш. WIPO. Женева, 1990. Б.83.
5. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 30.03.2022 й., 03/22/760/0249-сон
6. Невзгодина Е.Л. Представительство по советскому гражданскому праву. Томск, 1980. С. 31.
7. Рясенцев В.А. Понятие и юридическая природа полномочия представителя в гражданском праве. / Всесоюзный юридический заочный институт. – М., 1948. Б. 7.
8. Красавчиков О.А. Гражданские организационно-правовые отношения. Советское государство и право. 1996. № 10. С. 56-57.
9. Невзгодина Е.Л. Представительство по советскому гражданскому праву. Томск, 1980. С. 18.
10. Yakubov O. Significance And Principles Of The Trips Agreement In The Legal System Of World Trade Organization Agreements //The Peerian Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 65-69.
11. Yakubov O. TRADE ORGANIZATION AGREEMENTS: THE MAIN PRINCIPLES OF TRIPS AGREEMENT //Conferencea. – 2022. – С. 119-123.
12. Ўзбекистон Республикасининг «Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида»ги қонуни// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2013 й., 1-сон, 1-модда, 41-сон, 543-модда.
13. Yakubova I.B. O'zbekistonda mualliflik huquqi bo'yicha mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi. [Emergence and development of organizations of collective management of copyright property rights in Uzbekistan]. Yurisprudensiya – Jurisprudence, 2021. No. 6. pp. 66-74.
14. Агарков М.М. Ценность частного права // «Правоведение». 1992. N 1. С. 37-41.
15. Cисас. Decisions, discussion and wishes made during congresses and assemblies, 1926—1952 гг. (CISAC 1926—1952: 328).
16. Якубова И. Б. Право на жизнь-неотъемлемая часть личного неимущественного права //Вопросы современной юриспруденции. –2016. –№. 12 (62).
17. И.Якубова. Понимание коллективного управления авторских прав в историческом контексте. Юрист Ахборотномаси 1 (6), 76-80. 12. V.Vaynke. Avtorskoe pravo. Reglamentasiya, osnovi, budushee [Copyright. Regulations, fundamentals, future.]. Denmark, M., 1979, p. 97.
18. O. Oqyulov. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. [Legal status of intellectual property]. Tashkent, 2000, pp. 36-45.
19. Закон № 9.610 от 19.02.1998 г. «Об авторском праве и смежных правах» с изменениями, внесенными Законом № 12.853 от 14.08.2013 г. <https://wipolex.wipo.int/ru/legislation/details/17474>
20. Закон Китайской Народной Республики «Об авторском праве» (обнародован Указом Президента Китайской Народной Республики № 31 от 07.09.1990 г. ) <https://wipolex.wipo.int/ru/legislation/details/839>
21. Мексика: Федеральный закон об авторском праве (в редакции от 14 июля 2014 г.) [https://www.wipo.int/news/ru/wipolex/2014/article\\_0017.html](https://www.wipo.int/news/ru/wipolex/2014/article_0017.html)
22. Липцик Д. Авторское право и смежные права. М., 2002. С. 360.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/6 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).